

JAMIYAT TARAQQIYOTIDA ISHSIZLIK: MUOMMO VA ECHIMLARI

Yo'ldasheva Mashhura Jo'rabek qizi

Alfraganus Universiteti

Iqtisodiyot tarmoqlari va sohalari yunalish 2-bosqich talabasi

Ermatov Musojalil Komilovich

Ilmiy maslahatchi:

iqtisod fonlari nomzodi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10456074>

Annotatsiya. Mazkur tezisdagi jamiyatda taraqqiyotidagi ishsizlik, Davlatning iqtisodiy rivojlanishida inson omiliga bo'lgan siyosat va undagi ijtimoiy himoya jarayonlari qiyosiy tahlil qilinadi. Unda Keyns nazariyasidagi ishsizlik omiliga hozirgi zamon munosabatlari, mamlakatimizdagi ishsizlik tendentsiyalari ochiqqlanadi. Inson kapitaliga ajratilayotgan mablag'lar ishsizlikni kamaytirishdagi roli hamda iqtisodiy rivojlanish taraqqiyoti jarayonlari to'g'risida xulosa va takliflari bayon etiladi.

Kalit so'zlar: Keyns, ishsizlik, nazariya, daromad, iqtisodiyot, taraqqiyot, strategiya, moliya, siyosat, resurs, byudjet.

UNEMPLOYMENT IN SOCIAL DEVELOPMENT: PROBLEM AND SOLUTIONS

Abstract. In this thesis, the unemployment in the development of the society, the policy of the human factor in the economic development of the State and the social protection processes in it are comparatively analyzed. It reveals the current relationship to the unemployment factor in Keynes' theory, unemployment trends in our country. Conclusions and suggestions about the role of funds allocated to human capital in reducing unemployment and the processes of economic development are presented.

Key words: Keynes, unemployment, theory, income, economy, development, strategy, finance, policy, resource, budget.

БЕЗРАБОТИЦА В СОЦИАЛЬНОМ РАЗВИТИИ: ПРОБЛЕМА И РЕШЕНИЯ

Аннотация. В данной тезисе сравнительно анализируются безработица в развитии общества, политика человеческого фактора в экономическом развитии государства и процессы социальной защиты в нем. Раскрыто современное соотношение фактора безработицы в теории Кейнса, тенденции безработицы в нашей стране. Представлены выводы и предложения о роли средств, направляемых на человеческий капитал, в снижении безработицы и процессах экономического развития.

Ключевые слова: Кейнс, безработица, теория, доход, экономика, развитие, стратегия, финансы, политика, ресурс, бюджет.

Kirish

Har qanday jamiyatning iqtisodiy islohatlar asosini iqtisodiyotni erkinlashtirish va moliyaviy resurslar harakatini ochiqqligini ta'minlash orqali mavjud ishchi kuchlarini ish bilan ta'minlashdan boshlanadi. Natija kishilik jamiyatini faravon hayotga va ijtimoiy soha yo'nalishini mo'tadil rivojlanishi lozim.

Kishilik jamiyatining taraqqiyot yo'li ijtimoiy-iqtisodiy soha yo'nalishidagi to'g'ri chora-tadbirlar va inson omilining tinimsiz mehnati asosida shakllanadi. Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoev unga quyidagi izoh beradi.

Mamlakatimizda 30 yoshgacha bo'lgan yoshlar soni 18 milliondan ziyod. Bu aholining qariyb 55 foizini tashkil etadi. Zamon talablarini ilg'ash va amalga oshirish, soha va tarmoqlarni olg'a boshlashda bu juda katta tayanch, bebaho xazinadir.

Yoshlar muammolari bo'yicha ishlar ikkita muhim yo'nalishda tashkil qilinishi zarur. Birinchisi — yoshlar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash, kasb-hunarga o'qitish orqali ularning bandligini ta'minlash bo'lsa, ikkinchisi — yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish¹.

Bugungi kunning dolzarb muammosi, mamlakatimizda olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy siyosatda yoshlarni tadbirkorlik san'atiga jalb etish orqali ishsizlik ko'lamini kamaytirish va ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etishdan iborat. Bu masala mashaqqatli izlanish, yoshlar tashabbuskorligi hamda ularning jasoratini talab etuvchi soha yo'nalishining markaziy masalalar echimini izlashdan iborat.

Asosiy qism

Bizga ma'lumki, iqtisodiyot sohasi tabiiy fanlardan farq qilib, undagi xulosalarini laboratoriya sharoitida tajriba o'tkazib yoki tabiatdagi sinovlar yordamida tekshirib ko'rish imkoniyati mavjud emas. Chunki, nazariy jihatidan jamiyat taraqqiyotida iqtisodiy beqarorlik mavjud, uning belgilarini ishlab chiqarishning pasayishi, ishsizlik va inflyatsiya deb qaralsa, uni tasdiqlash uchun tajriba yoki sinov maydoni tashkil qilib unda moliyaviy tajriba o'tkazib bo'lmaydi. Bularni faqat kuzatish, ular haqida ma'lumot to'plash va bu ma'lumotni nazariy va tanqidiy umumlashtirishni talab qiladi.

O'tmishda turli iqtisodchi olimlar o'zlarining jamiyat rivojlanishi va tanazzulining kuzatish hulosalarini jamlab, mamlakat rivojlanishida qanday omillar ta'siri joqori darajada bo'lishligiga qarab ular o'sha bog'inning boshlang'ich markazi deya qabul qilgan va shu nuqtadan masal echimini izlagan. Xususan:

J.M. Keynes 1929-1933 yildagi amerika bo'lib o'tgan iqtisodiy tanazzulning bosh mezonini o'z tahlilidagi boshlang'ich nuqtasi etib ish bilan bandlik muammosidir deya tanladi. Chunki, u davrda ishsizlik ko'p edi. U olim joqori rivojlangan bozor iqtisodiyotida hayotiy zarur muammoni ishsizlik echimini taklifdan emas, balki talabdan qidirish kerak degan xulosaga keldi. Uning fikriga ko'ra, aynan iste'mol buromlari va ishlab chiqarish resurslariga bo'lgan talabning kamligi bahoning pasayishiga va taklifning qisqarishiga sabab bo'ladi, bu esa ish joylarining kamayishiga olib keladi. Yalpi talabning yalpi taklifdan orqada qolib ketishi bu kapitalistik jamiyatning doimiy kasalligidir. Yalpi talab harakati va ijtimoiy mahsulot miqdorining o'zgarishi o'rtasidagi bog'liklik Keynes amalga oshirgan tadqiqotining asosiy izlanishini tashkil etgan.

Ushbu olim o'z e'tirozlarida, agar jamiyat iqtisodiy inqirozni boshidan kechirayotgan davrda davlat bosh isloxotchi sifatida yalpi talabni pul-kredit va budjet siyosati vositasi yordamida tartibga solishi lozim. SHuningdek, u eng avvalo, xususiy investitsiyalarni

¹ Sh. M. Mirziyoev. Yoshlar bandligini ta'minlash masalalari muhokamasi. 2021. 27-yanvar.
<https://www.gazeta.uz/uz/2021/01/27/youth-policy>

rag'batlantirishga e'tiborni jamladi. YA lpi talabni rag'batlantirish vositasiga u real ish haqining o'sishini to'xtatishni taklif etdi. Sababi, u holatda investitsiyaga sarflanadigan foyda ko'payadi, ssuda foizi darajasini pasaytirilishi natijasida eksportni ko'paytirishni taklif etadi. CHunki, kredit foiz qancha past bo'lsa, investitsiya shuncha ko'p bo'ladi, shuningdek, davlat xarajatlarini noishlab chiqarish uchun ham ko'paytirishni talab etdi.

Agar davlat moliyaviy mablag'larini oqilona sarf etsa, "ehromlar qurilishi, er qimirlashi, hatto davlatlar o'rtasidagi urushlar boylikni ko'paytirishga xizmat qilishi mumkin" deya takidlaydi, J.M. Keynes.

Uning vafotidan so'ng, YAngi keynschilik nazariyalari shakllandi. Ular davlat tomonidan iqtisodiyotni tartibga solish omillarida bilvosita va bevosita tartiblash chora-tadbirlarini ishlab chikdilar. Bevosita aralashuv usuli iqtisodiyotga qonun va qarorlar asosida jamiyatni tartibga solish bo'lsa, bilvosita ta'sir ko'rsatish usuliga soliq siyosati, b'udjet orqali moliyalashtirish, kredit siyosati, tezlashtirilgan amortizatsiya omillarini kiritgan.

Albatta, ishsizlik murakkab masala bo'lib, har bir mamlakat uchun ishsizlikni kamaytiradigan universal saldat yo'q, yoki yagona yechimini topuvchi robot yaratilmadi. Biroq ishsizlik muomosini hal qilishda samarali bo'lishi mumkin bo'lgan bazi umumiy strategalar mavjud. Amerika qo'shma shtatlarda hukumat ishsizlik bilan kurashish uchun turli dasturlar va siyosatni amalga oshirgan. Bularga quyidagilar asosiy e'tibor qaratilgan:

1. Iqtisodiyotni rag'bantlantirish dasturi. Unda ish o'rinlarini yaratish va iqtisodiy faollikni oshirishga qaratilgan infratuzilma loyihalari va boshqa dasturlarga davlat xarajatlarini belgilash;

2. Ish o'rgatish dasturlarini bandligini ta'minlashga yordam berish uchun shaxslarga malaka oshirish va ta'lim berish omillarini shakllantirish;

3. Ishsizlik sug'urtasi ishdan ayrilgan shaxslarga moddiy yordam ko'rsatishni ta'minlash;

4. Korxonalar uchun soiliq imtiyozlarini yaratish kampaniyalar uchun ko'proq ishchilar yollash uchun soliq imtiyozlarini taklif qilishni tadbiiq etish;

5. Kichik biznesni qollab-quvatlash, rivojlantirish va ish o'rinlarini yararishga yordam berish uchun mablag' va boshqa resurslar bilan ta'minlash omillarini belgilash lozim.

Mamlakatimizda ishsizlikni minimal darajaga tushirish maqsadida yuqorida keltirilgan omildan foydalanilmoqda. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanish bo'lib, unga katta e'tibor qaratilmoqda. Bu zaminimizda yashayotgan insonlarning munosib va erkin, farovon hayotini ta'minlash har bir kishi huquq va imkoniyatlaridan to'liq foydalanish uchun zarur sharoitlarni yaratishdir. O'zbekistonda mehnat salohiyatining muhim xususiyati – uning yoshi va kasbiy tarkibidir. O'zbekiston aholisining o'rtacha yoshi 25,9 yoshga teng. Bu XXI asrning ikkinchi o'n yilligi boshida mehnat zaxiralari yuksak mehnat faolligi va kasb tayyorgarligi bilan ajralib turadigan odamlar ko'pchilikni tashkil etishiga imkon beradi.

Birlashgan millatlar tashkiloti e'lon qilgan ma'lumotlarga ko'ra, er qurrasida ayni paytda, 12 milliondan ortiq kishilar qullik asosida hayot kechirayotganligini e'lon qildi. So'nggi 40 yil davomida birgina Afrika qit'asidan okeanorti mamlakatlarga 12 milliondan ziyod tirik tovar olib ketilganligi qayd etilmoqda. Hozirgi kunda 137 ta davlatda, iqtisodiy beqarorlik, surunkali ishsizlik hukm surayotgan joylardan majburiy ishlatish uchun odamlar keltirilishi davom etmoqda.

Xulosa

Biz uqoridagi tadqiqotlarimiz nitajasida quyidagi xulosa va takliflarni bildiramiz:

ishsizlik va inflatsiya ko'pincha bir biriga bog'liq bo'lib, ish o'rinlari yaratish qisqa muddatda talabning oshishiga va inflatsiyaning bosimiga olib kelishi mumkin bo'lgan strategalar mavjud, unga ko'ra:

1. Xosildorlikni va samaradorlikni oshirish; narxlarga bosimni pasaytirishning bir usuli bu iqtisodiyotda samaradorlikva samaradorlikni oshirish. bunga ta'lim o'qitish va texnologiyaga sarmoya kiritish orqali erishiladi.

2. Raqobatni kuchaytirish; inflatsiyani/inflatsiyani nazorat qilishning yana bir usuli bozorlarga raqobatni kuchaytirishdir. bunga kirish yo'lidagi to'siqlarni kamaytirish xorijiy investitsiyalarni rag'bantlantirish va raqobatbardosh biznes muhitini rag'bantlantirish orqali erishish mumkin.

3. Maqsadli bandlik dasturlari; keng aholini ish bilan ta'minlash o'rniga maqsadli bandlik dasturlari muayyan guruhlarin masalan kam ta'minlangan yoshlarini yoki qishloq aholisini ish bilan ta'minlash uchun qo'llab-quvatlash va malakali qadrlarni yaratish va ushbu dasturlar odamlarga o'z ishlarini muvaffaqiyatga erishish uchun o'qitish va qo'llabquvatlashuchun mo'ljallangan bo'lishi mumkin.

4. Fiskal va pul-keredit siyosati .fiskal va pul-keredit siyosati ishsizlik kamaytirish va inflatsiyani nazorat qilish va maqsadlarni muvozanatlash uchun ishlatilishi mumkin. masalan soliq imtiyozlari kabi fiskal siyosat investitsiyalarni rag'batlantirish mumkin, foiz stavkalari kabi pul keredit siyosati esa inflatsiyani rag'batlantirish mumkin foiz sitafkakari kabi pul kredit siyosatini esa inflatsiyani tartibga solish orqali nazorat qlish mumkin. umuman olganda ishsizlikni kamaytirish va inflatsiyani nazorat ostida ushlab turish o'rtasidagi muvozanatni saqlash muhimdir. ish bilan ta'minlanishning maqsadli dasturlari mahsuldorlikni va samaradorlikni oshirish va oqilona byujed va pul-keredit siyosatini o'zida mujassam etgan ko'p qirrali yondashuv ushbu maqsadlarga erishishga yordam beradi.

Taklif

O'zbekistonda ishsizlikni kamaytirish dasturida bevosita va bilvosita usullaridan foydalanishi shart.

Dasturda ish izlayotgan shaxslarga ish qidirish bo'yich yordam va martaba bo'yicha maslahatlar berish tashkilotlari shakllantirilishi lozim. Ishsizlik muomosini hal qilishning potensal yo'llari quyidagi takliflarni bildiramiz:

1. Xorijiy sarmoyani rag'bantlantirish, o'zbekistonda sarmoya kiritish uchun xorijiy kompaniyalarni jalib qilish , ish o'rinlarini yaratish va iqtisodiy yuksaltirish;

2. Maqsadli kasbiy ta'lim dasturlarini ishlab chiqarish;shaxslarga moslashtirilgan ta'lim va o'qitishni ta'minlash;

3. Kichik biznesni qo'llab quvvatlash, kichik biznesni rivojlantirish va ish o'rinlari yaratish uchun mablag'lar va resurslar taklif qilish;

4. Infratuzulmani modernizarsiya qilish bo'sh ish o'rinlar yaratuvchi infratuzulma loyhalariga sarmoya kiritish hamda mamlakatning transport energetik va boshqa tizimlarni yaxshilash.

5. Turizimni rivojlantirish; turizim sohasini rivojlantirish o'zbekiston aholisi uchun yangi ish o'rinlarni yaratish;

6. Tadbirkorlarni rag'batlantirish. Unda jismoniy shaxslarga o'z bizneslarini boshqalarga undash yangi ish o'rinlar yaratish mumkin. Umuman olganda ishsizlik muomosi hal qilish davlat siyosati va xususiy sektor bilan hamkorlikni o'z ichiga olgan ko'p qirrali yondashuv talab qiladi. Ish o'rinlarini yaratish va ishchi kuchini rivojlantirishga ustuvor ahamyat berish orqali o'zbekiston ishsizlikini kamaytirish va iqtisodiy o'sishini rag'batlantirish yo'lida harakat qilishi lozim.

REFERENCES

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлис ва Ўзбекистон халқига Мурожаатномаси. 20.12.2022 <https://president.uz/uz/lists/view/5774> -б. 8
2. Sh. M. Mirziyoev. Yoshlar bandligini ta'minlash masalalari muhokamasi. 2021. 27-yanvar. <https://www.gazeta.uz/uz/2021/01/27/youth-policy>
3. 2022 йил 28 январда “2022-2026 йилларга мўлжалланган янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида” ги Ўзбекистон Республикаси президентининг фармони.
4. Ўзбекистон Республикасининг «2023 йил учун Ўзбекистон Республикасининг Давлат бюджети тўғрисида»ги 30.12.2022 ПҚ-471-сон Қонуни.
5. Ўзбекистон Республикасининг Бюджет кодекси. // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2013 й., 52-И-сон; 2014 й., 36-сон, 452-модда; 2015 й., 52-сон, 645-модда.
6. Хайдаров М.Т. Давлат бюджетини режалаштириш ва бунда бюджет ташкилотлари ва бюджетдан маблағ олувчилар бюджет буюртмаларининг аҳамияти. // «Иқтисод ва молия», 2014, 12-сон. -19-б.65. Хайдаров М.Т. Модернизациялаш ва инновацион иқтисодиётни тадқиқ этиш-нинг долзарб масалалари. // «Иқтисод ва молия», 2014 йил 7-сон.